

## INKLYUZIV GRUHLARGA EGA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILITIDA GRUHLAR

*Toshkent TMC Institutining  
Pedagogika fanlar kafedrasi o'qituvchisi  
Eshmamatova Setora Turg'un qizi.*

*Toshkent TMC Institutining  
Maktabgacha ta'lim sirtqi yo'nalishi talabasi  
Bulutboyeva Muxabbat Mansurjon qizi*

**Annotatsiya.** Inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblanib, barcha bolalarning teng huquqli tarzda ta'lim-tarbiyaga jalb qilinishini ta'minlaydi. Bunday guruhlarda sog'lom va alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar birgalikda tarbiyalanib, ularning ijtimoiylashuvi, bilim va ko'nikmalari rivojlanadi. Inklyuziv guruhlarining samarali faoliyat yuritishi pedagoglarning maxsus tayyorgarligi, psixologik yondashuvi va individual dasturlar ishlab chiqishiga bog'liq. Shu bilan birga, ota-onalar bilan hamkorlik ham alohida ahamiyat kasb etadi, chunki oilaviy qo'llab-quvvatlash bolaning ijobiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Guruhlarda sog'lom muhitni yaratish, o'zaro hurmat va mehr-oqibatni shakllantirish orqali bolalarda bag'rikenglik, hamkorlik va do'stona munosabatlar tarbiyalanadi. Mazkur yondashuv kelajakda jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, har bir shaxsning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishiga sharoit yaratadi. Shu sababli, inklyuziv guruhlarining tashkil etilishi nafaqat ta'lim sifati, balki umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, inklyuziv guruhlar, bolalar tarbiyasi, alohida ta'lim ehtiyojlari, pedagogik yondashuv, ijtimoiylashuv, hamkorlik, bag'rikenglik, ota-onalar ishtiroki.

Bugungi globallashuv davrida jamiyat taraqqiyotining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri ta'limning qamrovi va sifati hisoblanadi. Har bir davlatda inson kapitaliga berilayotgan e'tibor yildan-yilga ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy etish, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan bir qatorda tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, har bir bola jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lish huquqiga ega, uning qobiliyat va imkoniyatlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Inklyuziv guruhlar tashkil etilishi bilan bog'liq tajribalar shuni ko'rsatadiki, bunday guruhlarda tarbiyalanayotgan bolalar nafaqat bilim olish, balki ijtimoiy ko'nikmalarga ham ega bo'ladilar. Ular birgalikda o'ynash, hamkorlik qilish, o'zaro

hurmat va yordam ko'rsatish orqali jamiyatdagi tenglik tamoyillarini his etadilar. Maktabgacha yosh bolaning shaxs sifatida shakllanish davri bo'lgani sababli, bu bosqichda inklyuziv ta'limning samarali tashkil etilishi kelajakdagi ta'lim jarayonlari va ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutadi.

Mazkur maqolada inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlarini tashkil etish, ularning pedagogik-psixologik asoslari, afzalliklari, muammolari va istiqbollari haqida batafsil fikr yuritiladi.

Inklyuziv ta'lim — bu barcha bolalarning, jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning teng sharoitlarda ta'lim olish imkoniyatini nazarda tutuvchi tizimdir. Uning asosiy g'oyasi — har bir bola o'zining qobiliyati va ehtiyojidan qat'i nazar, umumiy ta'lim jarayoniga jalb etilishi kerak. Inklyuzivlik tamoyili insonparvarlik, bag'rikenglik va teng huquqlilikka asoslanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari inklyuziv tizimning eng birinchi bo'g'ini hisoblanadi. Chunki bu davrda bola atrofdagi dunyoni anglay boshlaydi, jamiyat bilan ilk marta bevosita muloqotga kirishadi. Shu bois maktabgacha ta'limda inklyuziv guruhlar tashkil etish bolaning kelajakdagi muvaffaqiyatiga asos yaratadi.

Inklyuziv guruhlarining tashkil etilishi bir nechta asosiy maqsadlarni ko'zlaydi:

1. Teng ta'lim imkoniyatini yaratish – barcha bolalar bilim olish jarayonida bir xil sharoit va imkoniyatlarga ega bo'lishi.
2. Ijtimoiy integratsiya – alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning jamiyatga moslashuvi va sog'lom tengdoshlari bilan hamkorlik qilishini ta'minlash.
3. Shaxsiy rivojlanish – har bir bolaning individual qobiliyatlarini ochib berish, o'zini erkin ifoda etishiga sharoit yaratish.
4. Bag'rikenglik va hurmatni shakllantirish – sog'lom bolalarda mehr-oqibat, hamdardlik va insonparvarlik xislatlarini tarbiyalash.
5. Ota-onalar bilan hamkorlik – oilaning ta'lim-tarbiya jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash.[3]

Inklyuziv guruhlarining pedagogik asoslari

Inklyuziv guruhlarda pedagogik jarayon an'anaviy ta'limdan farqli jihatlarga ega. Pedagog har bir bolaning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim metodlarini tanlashi lozim.

Dars mashg'ulotlarini moslashtirish: alohida ehtiyojli bolalarga qo'shimcha ko'rsatmalar, vizual materiallar yoki maxsus o'yinlar orqali mavzuni tushuntirish.

Differensial yondashuv: barcha bolalarga bir xil topshiriq berish emas, balki ularning imkoniyatiga qarab turli murakkablik darajasidagi mashg'ulotlarni tashkil etish.

O'yin orqali ta'lim: maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin asosiy faoliyat turi bo'lgani sababli, mashg'ulotlar ko'proq interaktiv shaklda olib borilishi kerak.

Hamkorlikda o‘qitish: sog‘lom va alohida ehtiyojli bolalarni birgalikda kichik guruhlarda ishlashga jalb etish.

Inklyuziv guruhlarining samaradorligi ko‘p jihatdan ota-onalar bilan hamkorlikka bog‘liq. Oilaviy qo‘llab-quvvatlash bolaning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Pedagoglar ota-onalar bilan doimiy muloqotda bo‘lishlari, maslahatlar berishlari, bolaga yordam berish usullarini o‘rgatishlari zarur.[4]

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarning teng huquqli ta‘lim olishlarini ta‘minlash, jamiyatda bag‘rikenglik va insonparvarlik qadriyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Har bir bola alohida shaxs sifatida qadrlanishi, uning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun qulay sharoit yaratish zarur. Bu borada davlat siyosati, pedagoglar mahorati, psixologik yondashuv va ota-onalarning qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv guruhlarining keng joriy etilishi natijasida ta‘lim sifati yuksaladi, jamiyatda ijtimoiy adolat qaror topadi va har bir bola o‘z qobiliyatini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020–2025 yillarda inklyuziv ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasi” PQ–4860-son Qarori. – Toshkent, 2020. – 12 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi. Inklyuziv ta‘lim metodik qo‘llanma. – Toshkent: 2021. – 95 b.
3. G‘ofurov K. Umumiy pedagogika asoslari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. – 340 b.
4. Abduqodirov A.A. Psixologiya va pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2014. – 280 b.